


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA – QURILISH UNIVERSITETI**



**Universiteti Boshqaruv Kengashining
2024 yil 20-dekabr kuni o'tkazilgan
5-sonli majlisi
BAYONI**

Samarqand shahri 2024-yil

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
Boshqaruv Kengashi 5-son majlisining
B A Y O N I

2024-yil 20-dekabr

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi:

Chidem Janbay Turkyilmaz – Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti rektori

Qatnashganlar: 18 nafar Kengash a'zosi dan 13 kishi qatnashdi.

KUN TARTIBI

1. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti professor-o'qituvchilarining egallab turgan lavozimidan boshqa lavozimga o'tkazish to'g'risida.

Ma'ruzachi: Strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektor **J.Qayumov**

2. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2024-yilda ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va 2025-yildagi vazifalar to'g'risida

Ma'ruzachi: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha v.v.b. prorektor **U.A.Xushvaqto'v**

3. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot.

Ma'ruzachi: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor **Sh.X.Uzokov**

4. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida o'quv-uslubiy sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot.

Ma'ruzachi: O'quv ishlar bo'yicha prorektor v.v.b. **F.I.Isrofilov**

5. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining 2024-yil yanvar-dekabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan moliyaviy (daromadlar va xarajalar) hisoboti

Ma'ruzachi: Moliya-iqtisod ishlar bo'yicha v.v.b. prorektor **U.T.Xolmatov**

6. Turli masalalar

Chidem Janbay Turkyilmaz – Kengash raisi:

Assalomu alaykum hurmati Kengash a'zolari!

So'zning avvalida barchangizni kirib kelayotgan yangi 2025-yil bilan samimiy muborakbod etaman! Sizlarga mustahkam sog'lik, oilaviy baxt, xotirjamlik, ishlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdaagi "Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ 416-sonli qaroriga ko'ra Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand

davlat arxitektura-qurilish universitetida Kuzatuv Kengashi, Boshqaruv Kengashi va Universitet Kengashi tashkil etilgan.

Boshqaruv Kengash yetti kishidan kam bo'lmagan toq sondan iborat tarkibda tashkil etiladi. Boshqaruv Kengashi rektor (rais), fakultet dekanlari, oliy ilm-fan maktabi dekani, hamda har bir fakultet va oliy ilm-fan maktabidan tayinlangan bir nafardan a'zolaridan iborat bo'ladi.

Shuningdek, Boshqaruv Kengashida prorektorlar, bosh kotib va universitet talabalari vakili ovoz berish huquqsiz qatnashadi.

Boshqaruv Kengashida odatda universitetning strategik rejasini shakllantirish; universitetning faoliyat dasturi to'g'risida qaror qabul qilish; universitetning investitsiya dasturi va byudjetini shakllantirish; moliyaviy qarorlar qabul qilish; professor-o'qituvchilarning lavozimga tayinlash to'g'risida qaror qabul qilish; qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa vazifalar, shuningdek, universitet faoliyatiga aloqador rektor tomonidan kun tartibiga qo'yiladigan masalalar muhokama qilinadi va ular bo'yicha qaror qabul qilinadi.

Bugungi Boshqaruv Kengashi yig'ilishiga 18 a'zodan 13 kishi ishtirok etayapti. Kengashni ochishga kворum bor. Yig'ilishni boshlab berish uchun ovoz berib tasdiqlashlarini so'rayman.

Taklif ovozga qo'yildi va tasdiqlandi.

Marhamat, kun tartibidagi masalalarni ko'rib chiqishni boshlasak.

Masalalarni ko'rib chiqish tartibi va reglament belgilandi hamda tasdiqlandi.

1 – masala

Chidem Janbay Turkylmaz – Kengash raisi:

Birinchisi masala bo'yicha so'z Strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektor J.Qayumova berildi. Chuqur kasbiy bilimlarga va ilmiy yutuqlarga, ijodiy, ilmiy salohiyatga, yuksak intellektual qobiliyatlarga ega bo'lgan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasida mutaxassislar tayyorlash bilan shug'ullanishga munosib bo'lgan eng malakali pedagog kadrlarni tanlash uchun raqobat muhitini yaratish va ta'minlash maqsadida **1-masala:**

Universitet professor-o'qituvchilarni lavozimdan lavozimga o'tkazish bo'yicha **Eshitildi:**

Universitet Boshqaruv Kengashi yig'ilish kun tartibiga kiritilgan Universitet professor-o'qituvchilarni (v.v.b) lavozimdan lavozimga o'tkazish masalasi yuzasidan quyidagi 46 nafar professor-o'qituvchilarning arizalari ko'rib chiqildi va xulosa berilgan. KPI ko'rsatgichlarini to'liq bajargan quyidagi professor-o'qituvchilar

№	O'qituvchining F.I.Sh.	Katedra nomi	Egallab turgan lavozimi	Tavsiya etilayotgan lavozimi
1.	Kamolova Dilnoza Zayniddinova	Arxitektura	Professor v.v.b.	Professor
2.	Sultanova Dilshoda Namazovna	San'at	Professor v.v.b.	Professor

1. Universitet rektorining 2023-yil 1-maydagi X-138-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Universitet professor-o'qituvchilarini tanlov asosida ishga qabul qilish, ular bilan muddatli shartnoma tuzish tartibi hamda faoliyatining samaradorligi baholash mezonlari (KPI)" ko'rsatgichlarini to'liq bajaragan quyidagi professor-o'qituvchilarni egallab turgan lavozimidan lavozimga o'tkazishga ruxsat berilsin:

2-masala

Samargand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2024-yilda ilmiy tadqiqot va

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son

Ilmiy bo'limning asosiy maqsadi iqtidori talabalarni izlash, aniqlash va maqsadli tayyorlashdan iborat bo'lib institutning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi, tayyorlash va bu borada yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanining

aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish uchun imkoniyat yaratishdir. Talabalarni ilmiy faoliyatga yo'naltirish borasida iqtidorli talabalarni institutning yetakchi professor-o'qituvchilariga birtiktirish, innovatsion ilmiy-fodiy faoliyatga yo'naltirilgan to'garakalar faoliyatini tashkil etish ishlari olib borilmoqda.

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2024-yilda ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va 2025-yildagi vazifalar to'g'risidagi hisoboti va "Iqtidorli talabalarni nomdor va Davlat stipendiyalariga tavsifa qilish" masala yuzasidan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha v.v.b. prorektor U.A.Xushvaqto'v axboroti ma'lumot uchun qabul qilinсин.

2-masala

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot.

Chidem Janbay Turkiylmaz – Kengash raisi:

Yoshlar masalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor **Sh.X.Uzokov** so'zga chiqib, Ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari samaradorigini oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar va talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 38 ta ma'naviy-ma'rifiy va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilgan. O'tkazilgan tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning nutqlari o'rganilgan. Talabalarga universitet Nizomi, Ichki tartib qoidalari, "Odob-axloq kodeksi" mazmun-mohiyatini tushuntirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilgan. "Vatan bo'ylab sayohat" shiori ostida mamlakatimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, yoshlar orasida keng targ'ib etish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini mustahkamlash maqsadida professor-o'qituvchilar va talabalarning madaniy e'kskursiyalari doimiy tarzda tashkil etilgan. Talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida universitet 1-son TTJ qoshida faollar zali va 5 tashabbus markazi tashkil etilgan va faoliyati yo'lga qo'yilgan. Universitetda mavjud 3 ta TTJda sport maydonchalari bor. 2024-o'quv yilida Vazirlik va yuqori turuvchi tashkilotlar tomonidan kelgan 250ga yaqin xatlar ijrosi hujjatlashtirildi.

"Talabalar turar joylarida "Kafedra kunlari"ni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar rejas" ishlab chiqilgan. Rejaga asosan universitet kafedralaridan mas'ul etib belgilangan xodimlar tomonidan doimiy ravishda talabalar turar joylarida tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

Haftaning har juma kuni "Axborot va tyutorlik soati materiallari" doimiy ravishda mas'ullarga yetkaziladi.

Talaba klublari bo'limi tarkibida joriy o'quv yili boshida 20 ta klub faoliyat yuritayotgan bo'lsa, aprel oyiga kelib ularning soni 5 taga ko'paydi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrda PQ-416-son qarori va shu qarorning 2-ilovasi Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetini transformatsiya qilish va kompleks rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 11-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida universitet rektorining 2024-yil 14-martdagi "Talabalar klublari" faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 75-u-sonli buyrug'i tasdiqlandi.

Buyruqqa muvofiq universitetda qo'shimcha yangi klublar tashkil etildi va sharti ravishda bu klublar **"Yangi avlod shaharsozligi"**, **"Inter yer dizayni"**, **"San'at va dizayn"** deb nomlandi.

Qolaversa, talabalarining talab va istaklaridan kelib chiqqan holda **"Media liderlari"** klubi hamda 18-aprel kuni **Stend-UP** klubi faoliyati yo'lga qo'yildi.

"Yosh volontyorlar" klubi a'zolari Samarqand **Volontyorlar maktabi 6-mavsumida** o'qishlari tashkil etildi. Maktab bitiruvchilaridan jami 69 nafar talabalarga sertifikatlar topshirtilgan bo'lsa, shundan 35 nafarini universitet "Yosh volontyorlar" klubi a'zolari tashkil etdi. Joriy yilning 2-aprel kuni "Volontyorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirishga qaratilgan Harakatlar dasturi to'g'risida"gi 2022-yil 24-avgustdagi 01-07/31, 31 q/q, 35 q/q, 8 q/q-son qo'shma Qarorlariga muvofiq Samarqand viloyat Yoshlar ishlari agentligi, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti va O'zbekiston Volontyorlari Assotsiatsiyasi o'rtasida uch tomonlama o'zaro kelishuv **MEMORANDUMI** imzolandi. Kelishuv memorandumi imzolaniishi doirasida yurtimiz volontyorlari nomidan yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektor Uzokov Sherzod Xamidovichga **"Ezgulik elchisi"** faxriy nishoni topshirildi.

Joriy yilning 14-may kuni Jizzax davlat pedagogika universitetining madaniyat saroyida "Ma'rifat maydoni" respublika tanlovining 3-minutaqaviy bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlovda Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Ma'naviyat targ'ibotchilari" jamoasi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Avloniy izdoshlari", Navoiy davlat pedagogika universitetining "Sharq yulduzlari", Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining "Ziyo" jamoalariga qarshi bellashdilar.

Tanlov natijalariga ko'ra:

1-o'rin: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Avloniy izdoshlari" jamoasi;

2-o'rin: Navoiy davlat pedagogika universiteti jamoasi;

3-o'rin: Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti jamoasi qo'lga kiritdi.

Ijara xonadonlarida yashovchi talaba-yoshlarning yashash sharoiti, dars tayyorlashi, dam olishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari hamda ular o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish uchun yaratilgan sharoitlarning ahvolini talabalar dekanati dekani o'rinbosarlari va tyutorlari bilan hamkorlikda o'rganilib, natijalar **dekanat majlisida muhokama qilingan.**

Umunan olganda universitetda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning asarlari, risolalari, chiqishlari hamda Vazirlarning buyruqlari, xatlari asosida tizimli ravishda amalga oshirilganligi natijasida universitetda yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlari tizimli ravishda yo'lga qo'yildi.

QAROR QILADI:

1. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektor **Sh.X.Uzokov** hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Samargand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida o'quv-uslubiy sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot.

Chidem Janbay Turkiylmaz – Kengash raisi:

Ma'ruzachi: O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. *F.I.Istrofilov so'zga chiqib*, 2024-yil davomida 25 ta murojaat va jami 637 ta mutasaddi yuqori tashkilotlarning buyruqlari, farmoyishlari va ko'rsatmalari, o'quv - tarbiya jarayonlariga oid masalalar bo'yicha 4 taga, mutasaddi yuqori tashkilotlarning buyruqlari, farmoyishlari va ko'rsatmalari, o'quv - tarbiya jarayonlariga oid masalalar bo'yicha 350 taga ko'paygan.

Dekanatlar, kafedralar va talabalar bo'limi mas'ullariga dars mashg'ulotlarini o'tkazilishini yil davomida nazorat qilish bo'yicha ishlar olib borildi hamda aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf etildi.

Kafedra mudirlari va dekanlar bilan hamkorlikda 2023/2024 o'quv yilida amaliyotga yuborilgan 7016 nafar 2-3-4 kurs talabalariga munosib shart-sharoit yaratildi. Bundan tashqari 2024/2025-o'quv yilida dual ta'limni yo'lga qo'yish maqsadida soha korxonalarida kafedralarning filiallarini tashkil etish va filialda amaliy mashg'ulotlar o'tish uchun barcha sharoitlar yaratish topshiriqlari berildi. Natijada 7 ta kafedralar filiali tashkil qilindi.

„Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida“gi PQ-416-sonli Prezident qarorining maqsadli ko'rsatig'chilarida belgilangan vazifalarni bajarish bo'yicha yil davomida ishlar olib borildi. 2024-yil davomida 51 ta darslik hamda 102 ta o'quv qo'llanmalar chop etish borasidagi ko'rsatig'chilarga erishish maqsadida doimiy ishlar olib borildi. Yil davomida 42 ta darslik 78 ta o'quv qo'llanmalarga grif olindi hamda 14 ta darslik va 22 ta o'quv qo'llanma adabiyotedu.uz saytiga joylandi yillik reja ko'rsatkichiga erishildi. Kelgusi 2025-yil uchun universitetimizda 62 ta darslik 125 ta o'quv qo'llanma chop etish borasida kafedralar kesimida taqsimlanib chora-tadbir rejasini ishlab chiqildi.

Hemis axborot tizimidagi professor-o'qituvchilar ro'lidagi vazifalar, o'tilgan dars mashg'ulotlarni o'z vaqtida qayt etishlari va fakultet dekani ro'lidagi vazifalar faoliyati nazorat qilindi. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etildi.

Akademik almashinuv borasida 35-nafar talabalarimiz chet davlatlaridagi oliy ta'lim muassasalarida ishtirok etishgan bo'lsa O'zbekistondagi Oliy ta'lim muassasalari bilan 7 ta akademik almashinuv olib borildi.

Universitet tasarrufidagi Professional ta'lim muassasalari va akademik litsey uchun universitet professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda mahorat darslari tashkil qilindi bundan tashqari Ochiq eshiklar kunlari, „Antikorrupsiya bilimdoni“ va shu ko'rinishdagi ko'rik-tanlovlar bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrda „Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida“gi farmon ijrosini ta'minlash maqsadida Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti tasarrufiga birlashtirilgan 19 ta texnikum direktor va direktor o'rindosarlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Prezident farmonining mazmun-mohiyati, o'quv-uslubiy va metodik yordam ko'rsatish, ta'lim sifatini oshirish, shuningdek, texnikumlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash masalalari va kelgusidagi rejalarni muhokama qilindi.

O'quv laboratoriya jihozlari bo'yicha 2024-yilda 71 turdagi zamonaviy o'quv uslubiy laboratoriya Islom taraqqiyot banki tomonidan keldirildi

Xususan: Mashinasozlik laboratoriyasida 14 ta jihoz, Geomatika laboratoriyasida 10 ta jihoz Avtomatlashtirish laboratoriyasida 18 ta jihoz, Yo'l muhandisligi laboratoriyasida 25 ta jihoz, Mexnat muhofazasi va slomatlik muhandisligi laboratoriyasida 2 ta jihoz, Kimyo laboratoriyasida 2 ta jihozlar o'rnatilib universitet professor-o'qituvchilar mutaxassislar tomonidan o'quv jarayonida qo'llanilishi bo'yicha nazariy va amaliy tushunchalar berilib o'qitildi.

QAROR QILADI:

1. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida o'quv-uslubiy sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O'quv ishlar bo'yicha prorektor v.v.b. **F.I.Isrofilov** hisoboti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

5-masala

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining 2024-yil yanvar-dekabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan moliyaviy (daromadlar va xarajalar) hisoboti

Ma'ruzachi: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha v.v.b. prorektor U.T.Xolmatov

Chidem Janbay Turkyilmaz – Kengash raisi:

Ma'ruzachi: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha v.v.b. prorektor U.T.Xolmatov so'zga chiqib 2024-yil yanvar-dekabr oylarida davlat budjeti, O'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar yil boshiga qoldiq bilan birga, Xalqaro qo'shma ta'lim dasturlari mablag'lar yil boshiga qoldiq bilan birga, Xo'jalik faoliyatidan, shartnoma asosida xizmat ko'rsatishdan va boshqa manbalardan tushumlar 2023-yilga nisbatan, 2024-yilda 28% da o'sganini qayt etish kerak. 2023-yilda xarajalar daromadning 64,5 % tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda xarajalar 59,2 % ni tashki etishini qayd etish kerak.

Boshqaruv kengashi qaror qiladi:

1. Universitet rektorining 2023-yil 1-maydagi X-138-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Universitet professor-o'qituvchilarini tanlov asosida ishga qabul qilish, ular bilan muddatli shartnoma tuzish tartibi hamda faoliyatining samaradorligi baholash mezonlari (KPI)" ko'rsatgichlarini to'liq bajaragan quyidagi professor-o'qituvchilarni egallab turgan lavozimiga o'tkazishga ruxsat berilsin:
2. Kun tartibidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2024-yilda ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va 2025-yildagi vazifalar to'g'risidagi hisoboti va "Iqtidorli talabalarni nomdor va Davlat stipendiyalariga tavsiya qilish" masala yuzasidan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha v.v.b. prorektor U.A.Xushvaqtoev axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
3. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Sh.X.Uzokov hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
4. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida o'quv-uslubiy sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O'quv ishlar bo'yicha prorektor v.v.b. F.I.Isrofilov hisoboti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
5. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining 2024-yil yanvar-dekabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan moliyaviy (daromadlar va xarajalar) hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Ch.J.Turkylmaz
U.T.Xolmatov

